



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xasanov Axmad Isa o‘g‘li<sup>1</sup>

<sup>1</sup> SamDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи assistenti Xasanov Axmad Isa o‘g‘li

Elektron pochta: ahmad.hasanov.2018@mail.ru

Tel: +998972774432

## RUHIYAT TASVIRIDA PEYZAJNING O‘RNI

**Annotatsiya:** Badiiy asarning eng xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, unda inson ruhiy olami butun murakkabliklari, ziddiyatlari, butun sehri bilan aks ettirilsagina o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb eta oladi. Badiiy adabiyotda psixologik-ruhiy tasvirning o‘rni benihoya kattadir. Yozma adabiyotda psixologik-ruhiy tasvir tushunchasi ostida adabiy qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosi, orzu-o‘ylari, kechinmalari, kayfiyatları hamda intilishlarini yuksak badiiylik asosida tasvirlash san’ati yotadi. Ushbu maqolada “Lolazor” romanida psixologik-ruhiy tasvirning peyzaj tasviri bilan uyg‘unlashuvi masalasi tadqiq etiladi.

**Tayanch so‘zlar:** peyzaj, manzara, xarakter ruhiyati, makon va zamon, tafakkur.

## МЕСТО ДЕКОРАЦИЙ В ОПИСАНИИ ДУШИ

**Аннотация:** Одна из наиболее характерных черт художественного произведения состоит в том, что оно может привлечь внимание читателя только в том случае, если оно отражает духовный мир человека со всеми его



сложностями, противоречиями, всей его магией. Роль психологических образов в художественной литературе огромна. Под понятием психолого-духовного образа в письменной литературе лежит искусство изображения духовного мира, внутреннего мира, снов, переживаний, настроений и стремлений литературных героев на основе высокого искусства. В статье рассматривается вопрос адаптации психологического образа в романе «Лолазор» к пейзажному образу.

**Ключевые слова:** пейзаж, пейзаж, психика персонажа, пространство и время, мышление.

### THE PLACE OF SCENERY IN DESCRIBING THE SOUL

**Annotation:** the main characteristic feature of literary work is drawing reader's attention by all difficulties, contradictions and amazement of soul. The place of psychologic-sensitive description in literature is very important. The notion of psychologic-sensitive description in written literature is closely connected with description of inner world, feelings, sensitive dreams, mood and wishes of main characters by art of literary describing. The unity of psychologic-sensitive description with scenery image in the novel Lolazor is analysed in this article.

**Key words:** scenery, description, feelings, time and place, thinking.

**Kirish.** O‘zbek adabiyotining XX asr davri o‘zining bir necha xususiyatlari: yutuq-kamchiliklari, yangiliklari va o‘ziga xos kashfiyotlari bilan g‘oyat rang-barangdir. Xususan, asrimiz boshlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ifoda etuvchi badiiy asarlarning maydonga kelishi, 30-yillarda “qizil imperiya” ideallarini ifodalovchi, urush davridagi jangovarlik, vatanparvarlik ruhiyati singdirilgan asarlarni yaratish va nihoyat 50-80-yillardagi “sotsialistik realizm metodi”ga asoslangan asarlarning paydo bo‘lishi u yoki bu ma’noda adabiyotimizning bir qismlari ekanligini hisobga olsak, 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlarida yaratilgan bir turkum badiiy asarlarda har tomonlama o‘zgarishlar yuz



berganini ko‘ramiz. Bu o‘zgarish, tabiiy, edi. Chunki, biron bir yangilik hisoblangan voqea, yo‘nalish, uslub, tuzum yillar o‘tib o‘tmishga aylanishi va bugungi davr qoliplariga sig‘may qolishi qonuniyat maqomidagi hodisadir. Aynan shu davr oralig‘ida jamiyatning ijtimoiy hayotida ham muayyan silkinishlar, tanazzul epkinlari esayotgan, ayni damda, butun jamiyat yangilanishga katta ehtiyoj tuyayotgan palla edi. Bu esa, albatta, jamiyatning a’zolari bo‘lmish insonlar qalbida, ruhida ma’naviy tozarishga bo‘lgan ehtiyojni uyg‘otgan edi. Biz xuddi ana shu davrni oldik-da, uni “o‘tish davri” deb belgiladik. Bizga ma’lumki, adabiyot jamiyat bilan chambarchas bog‘langan holda yashaydi, chunki, u insonshunoslik fani hisoblanadi. Shu ma’noda jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar, yangilanishlar insonlar ruhiyatiga bevosita ta’sir etmasdan qolmaydi. Badiiy asarni to‘laligicha namoyon bo‘lishi uchun qahramon va uning ruhiyati masalasi birinchi o‘rindagi masalalardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda Murod Muhammad Do‘sning “Lolazor” romanini tahlilga tortdik. Romanda qahramonlar xarakterini ochishda tabiat tasviri o‘rni, ko‘lami va asar badiiyligida tutgan o‘rni haqida mulohaza yuritamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Peyzaj tasviri qahramonlar ruhiyatini ochish bilan birga makon va zamonni ham belgilab beradi. Demak, tabiat tasviri berilgan joy makon bo‘lsa, o‘sha tabiat tasviridan kelib chiqib biz zamonni belgilab olamiz. Masalan kuz, qish, bahor, yoz, tun, kunduz vahokozo. Bu haqda adabiyotshunos I.Sultonov quyidagi fikrlarni qayd etadi: “Tabiat tasviri sujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshiradi. Badiiy asarda tabiat hodisalari va ko‘rinishlari sujetning rivojini tezlatuvchi yoki sekinlatuvchi omil sifatida ham tasvirlanishi mumkin. Ammo tabiat manzaralaridan qahramonning ruhiy holatini ochib berish uchun foydalanish adabiy asarlarda eng ko‘p uchraydigan hodisadir. Bu holda tabiat tasviri qahramonlar taqdiridagi dramatizmni chuqurlashtiradi yoki ularning ruhlariga kuch



baxsh etadi. Demak, qahramonlarning bundan keyingi harakatlarini asoslab, sujet rivojiga ta'sir ko'rsatadi".<sup>1</sup>

Inson ruhiyatining o'ziga xos talablarini talqin qilishda: "Qahramonlar ichki dunyosining o'zgarishida tashqi ta'sirning, ya'ni muhit va sharoitning ketma-ket bergen ayovsiz zarbalari asosiy o'rinni egallaydi"<sup>2</sup> - deb yozadi M.Abdurahmonova. "Osmon mezonlardan yiltirar edi" jumlesi asar boshidan to oxirigacha ko'p bora qaytariladi. Nazar Yaxshiboyev sevadigan bu jumla uning ma'lum ma'noda ruhiyatini ohib beradi. Birinchidan mezon asosan kuzda paydo bo'ladi. Bu esa asar qahramonining yoshi o'tib, keksayganligiga sha'ma qilsa, ikkinchidan o'rgimchak to'rini eslatadi. Bu uning atrofi go'yoki o'rgimchak to'ridan iboratliligiga Nazar Yaxshiboyevning o'zi o'rgimchakka qiyoslanadi. O'ljasini qo'ldan bermaydi. Psixologizm ham aynan shu yerdan boshlanadi. Adabiyotshunos H.Umurov xarakter ruhiyati haqida shunday yozadi: "Xarakterni uning psixikasisiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki qahramon ruhiyatining tahlili – xarakterning yaxlitligini va to'laqonlilagini ta'minlaydi".

**Tadqiqotning metodologiyasi.** Tadqiqot peyzaj tasvirining bosqichlari orqali xarakter va ruhiyatni yoritishdagi darajalanish tamoyillarini nazariy umumlashtirishga yo'naltirilgan. To'g'ri, yetakchi adabiy istilohlar jahon va o'zbek adabiyotshunosligida atroflicha tadqiq qilingan. Uslub kategoriysi, bir tomonidan, badiiy ong (ijtimoiy yo'naltirilganlik) bilan bog'liqligi, ikkinchi tomonidan, vazifadoshlik nuqtai nazaridan janrning tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlariga daxldorligi, nazariy-estetik jihatdan umumlashtirish tadqiqot yo'nalishini tashkil etadi. Nazariy tadqiqotlarda peyzajning o'ziga xosligi, badiiy-estetik mohiyati, tasvir va ifoda uyg'unligidagi qarashlar mulohaza qilinadi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romanida peyzaj, badiiy uslub va janriy-kompozitsion bog'lamdagi yagona estetik markaz mohiyatini ochishdan iborat.

<sup>1</sup> Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, "O'qituvchi" , 2005 yil, 116-bet.

<sup>2</sup> М. Абдураҳмонова. Руҳий дунё тасвири. – Тошкент, "Ўзбекистон" , 1997 йил, 9-бет.



**Tahlil va natijalar.** Badiiy adabiyotda psixologik-ruhiy tasvirning o‘rnini benihoya kattadir. Yozma adabiyotda psixologik-ruhiy tasvir tushunchasi ostida adabiy qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosi, orzu-o‘ylari, kechinmalari, kayfiyatlar hamda intilishlarini yuksak badiiylik asosida tasvirlash san’ati yotadi. Uning mohiyatini esa, qahramon xarakteriga xos xislatlarning, ruhiy olamingning qay holda, qay vaziyatda ochilishi belgilaydi. Yozma adabiyotda psixologik tasvir anchagini chuqur va ko‘p qirralidir, ya’ni unda, nafaqat ruhiy-psixologik tasvir, balki ruhiy tahlil hukmronlik qilish darajasiga yetadi. Ruhiy tahlil kuchli bo‘lgan adabiy-badiiy asarlarda har bir detal, xatti-harakat, epizod, har bir voqe u yoki bu qahramonning ichki-ruhiy olamini ochishga bo‘ysundiriladi.

Har qanday adabiy-badiiy asar bilan o‘quvchi tanishar ekan, uning oldida eng birinchi va asosiy vazifa-badiiy asarni tushunish masalasi turadi. Asarni tushunish uchun esa, o‘quvchi uni o‘qish asnosida muayyan qoidalar, qonuniyatlar asosida ish ko‘rishi zarur bo‘ladi. Bu qonuniyatlar asarga tegishli bo‘lgan va u bilan bog‘liq bo‘lgan, tushunish masalasini osonlashtiruvchi bir qator omillardir. Bu omillardan biri, badiiy asarning ruhiyatiga kira olish, uning ruhiy olamini, qahramonlarning xarakterlari, ichki kechinmalari, o‘y-xayollari, ruhiy dunyosini anglash, demakdir. Badiiy asardagi har bir xarakter, xatti-harakatlar, detallar, voqealar rivoji, epizodlar orqali asar ruhiyati anglashiladi. Bu, nisbiy tushuncha. Chunki, badiiy asar ruhiyatini faqat yuqoridagi vositalar orqaligina tushunish mumkin, degan hukm noto‘g‘ri. Biroq, bu narsalar asarni to‘laroq tushunishda vosita rolini o‘ynaydi, xolos.

“Bugun aniq eslaydiki, u naq yigirma yil oldin, Bulduruqning kunbotar tomonida, toshlog‘u tikanzor qir ustida, botayotgan quyoshga yuz tutib, yuragi hapriqib, nadir saodatli damlarga intiq bo‘lib, Oshno bilan yonma-yon, shodlanib turmoqni tusagan ekan. Go‘yo o‘shal asnoda ham tepada mezonlar uchsa, osmon mezonlardan yiltirab yotsa. U gapirsa, Oshno gapirsa, gaplari ham kuz osmoniday tiniq va yuksak bo‘lsa!.. Ayni manzara – kuzning tiniq osmoni, ohista suzgan



mezonlaru boshqa belgilar, toki kunbotardagi qir yoki adirga qadar – qishloqdan adashib kelgan qalam ahlining barchasiga tanish ekanini u bilmasdi”<sup>3</sup>.

Ha, o‘z do‘sti ham uning qalbini tushunmadni yoki tushunishni istamadi. Bu esa Nazar Yaxshiboyev qalbida unga (Oshnoga ta’rif bizniki H.A.) nisbatan nafrat uyg‘onishiga sabab bo‘ladi.

Adib har bir xarakterga xos rango-rang psixologik holatlarni chuqur his etib, butun nozikliklari bilan asar syujetiga sindirishga intilgan, bunga erisholganligini aniq aytish mumkin. Chunki turli tabaqaga bo‘linib borayotgan jamiyatdagi mavjud shaxslarning o‘ziga xos ruhiyatini umumlashtira olganligini ham alohida urg‘u bilan qayd etish zarur. Romanda jamiyatning uch toifasiga mansub kishilarning ruhiy dunyosi, quvonchu iztiroblari, ya’ni ularning o‘z olami yaratib berilgan. Shaxs va jamiyat, jon va ruh, botiniy va zohiriyligi olam, iqtisod va siyosat o‘rtasidagi holat hisoblangan qonuni haqidagi o‘y-xayollari va kechinmalari tasvirlanadi. Butun olam muvozanat qonuni asosida mustahkam turgan bo‘lsa, jamiyat ham, uning asosini tashkil qilgan insonlar ham aynan shu muvozanat tufayli barqarordir. Ushbu muvozanat buzilgan zahoti hayotda, insonlar orasida har xil kutilmagan o‘zgarishlar, hatto izdan chiqishlar sodir bo‘ladi. Bu singari o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiga sabab bo‘luvchi turli omillardan eng muhimmi, bu jamiyatdagi siyosiy va iqtisodiy buhronlar hisoblanadi. Asarni bosh va birlamchi g‘oyasi jamiyat, totalitar tuzum va o‘sha uch shaxs ruhiyatidagi evrilishlar talqin qilinadi. Ayni paytda, uchala shaxsning bir avlod vakili bir paytlar kursdosh bo‘lganligi kabi o‘xshash tomonlari bor. Biroq vaqt o‘tishi bilan ular o‘rtasida osmon bilan er kabi keskin farq paydo bo‘ladi.

“Bog‘ xazonrezga yuz tutgan, juda ko‘rimli edi. Tepadagi yaproqlar tillo rangda, pastga tushganlari qorayib xira tortgan, andak parokandalik, andak mayuslik, xullas, tomosha qiladigan bir holda edi.

<sup>3</sup> Мурод Муҳаммад Дўст. “Лолазор” . -Тошкент: “Шарқ” , 1998. – Б. 6.



Shaharda mevali bog‘lar kamroq qoldi. Shu sababmi, markazda yashaydigan yor birodarlar bizning mahallaga o‘tishsa bas, dov daraxtlarimizni maqtashga tushadilar. Men, Yaxshiboyevning ham tuzukkina hovlisi bor, deb eshitganman, lekin o‘zim ko‘rganim yo‘q. Indamayroq, bog‘ aylanganini ko‘rib, o‘zimcha, bizniki yoqmadi-yov, deb o‘yladim. Keyin qarasam Yaxshiboyev g‘amgin tortibdi. Nuqlul tepaga, oftobda yonayotgan yaproqlarga tikiladi, daraxtlarning tanasini silaydi, silkitib ko‘radi, silkitganida yaproqlar yerga duv-duv to‘kiladi...”<sup>4</sup>.

Bu tasvirdan ko‘rinadiki asar qahramoni ruhiyatida dramatizm jarayoni kechayapti. U o‘z o‘tgan umrini sarhisob qilish bilan birgalikda o‘zidan hech qanday meros qolmayotganiga ichi achiydi. Shuning uchun ham Saidqul Mardon bilan o‘zi tug‘ilib o‘sgan Bulduruq qishlog‘ida katta bog‘ qilmoqchi. Masalaning tub mohiyati faqat shu bilan o‘lchanmaydi, qolaversa, uning uyida ham tinchlik yo‘q. Xotini Muhsina o‘zgacha olam, katta o‘g‘li Avval narkoman, Olloyori bo‘sang. Yozuvchi birgina shu xazonrez orqali uning butun ruhiy dunyosini kitobxonga namoyon qila olgan.

Yozuvchi bu kabi manzarani qalamga olar ekan, Nazar Yaxshiboyevning ruhiyatidagi sinishlarni jamiyatdagi hodisalar bilan bog‘laydi. Negaki, bu erda inson tabiatidagi mehr-shafqat o‘rinini egallagan xudbinlik va molparastlik kasalining yetilish sababini o‘tmish asoratlarining “izi” deb tushuntirishga undaydi. Yaxshiboyev og‘ir iztiroblar ichida qiynalib yashashi, oilasidan, shogirdlaridan, do‘stlaridan (Oshnodan bo‘lak do‘sti bormidi o‘zi) ko‘ngli to‘lmaslik balki uni shu kuyga solgandir. Biroq Yaxshiboyev o‘z hayotini tubdan o‘zgartirishga kirishar ekan, yozuvchi romandagi boshqa personajlarni (Saidqul Mardon kabi) unga saboq uchun ko‘zgudek tutishni maqsad qilagani shubhasizdir.

<sup>4</sup> Мурод Муҳаммад Дўст. “Лолазор” . -Тошкент: “Шарқ” , 1998. – Б. 47.



**Xulosa va takliflar.** “Lolazor” romanı g‘oyaviy asosini odamzodning ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy mohiyati tashkil etadi. Bu uchlik estetik qiyamatning milliy an’analarga munosabati yordamida ijodiy yaxlitlik kasb etadi. Adibning xarakter yaratish mahorati va ularning ruhiy dunyosini kashf etish darajasi romaniy tafakkur tadriji an’analarining uzviy aloqadorligi mahsulidir. Yozuvchi mahorati shunday narsaki, hayot materialini badiiy aks ettirishda rang-barang tasvir vositalaridan nechog‘li unumli foydalana olganligi bilan o‘lchanadi. Roman janri cheksiz imkoniyatlarga egaligi bilan boshqa adabiy janrlardan jiddiy tavofutlanadi. Murod Muhammad Do’stning “Lolazor” romanida tabiat tasviri orqali xarakter va ruhiyat bir-biriga o‘tib turadi. To‘g‘rirog‘i, mazkur ikki tushuncha hayotni poetik tadqiq etishning muhim ikki qirrasi sifatida izohlangan, dalillangan va tartibga solingan umumiyl badiiylik darajasini yuzaga chiqaradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Мурод Мұхаммад Дўст. “Лолазор”. -Тошкент: “Шарқ”, 1998. – Б. 555.
2. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2005 yil, 116-bet.
3. Абдураҳмонова М. Руҳий дунё тасвири. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1997 йил, 9-бет.
4. Умиров X. Бадиий психологизм ва ўзбек романчилиги. – Т.: Фан, 1983.
5. Расулов А. Мустақиллик даври адабиётининг назарий-метадологик асослари. – Т.: Маънавият, 2013. – 64 б.
6. Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Т.: Ўқтувчи, 2012.